



THE IMPACT OF THE BOLSHEVIKS ON THE POLITICAL SITUATION IN THE KHIVA KHANATE AND THE ABOLITION OF THE KHANATE

Marufjon Kayumov

*Candidate of Historical Sciences, Associate Professor
Namangan Institute of Engineering and Technology
Namangan, Uzbekistan
E-mail: marufjonkayumov101@gmail.com*

ABOUT ARTICLE

Key words: Asfandiyorkhan, Junaidkhan, P. Yusupov, the ships “Tashkent” and “Verniy”, Said Abdulla, the Turkish commission, the Red Army, the manifesto, “revolutionary movement”, “people's revolution”.

Received: 18.02.25

Accepted: 20.02.25

Published: 22.02.25

Abstract: This article provides information about the Bolshevik influence on the political situation in the Khiva Khanate in 1918-1920 and the abolition of the khanate. It also covers the military actions of the Bolshevik government against Junaid Khan during the occupation of the Khiva Khanate.

XIVA XONLIGIDAGI SIYOSIY VAZIYATGA BOLSHYEVIKLAR TA'SIRI VA XONLIKNING TUGATILISHI

Ma'rufjon Kayumov

*Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Namangan muhandislik-tehnologiya instituti
Namangan, O'zbekiston
E-mail: marufjonkayumov101@gmail.com*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Asfandiyorxon, Junaidxon, P. Yusupov, “Toshkent” va “Verniy” kemalari, Said Abdulla, Turkkomissiya, qizil armiya, manifest, “inqilobiy xarakat”, “xalq inqilobi”.

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1918-1920 yillarda Xiva xonligidagi siyosiy vaziyatga bolshyeviklar ta'siri va xonlikning tugatilishi to‘g‘risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek Bolsheviklar xukumati Xiva xonligini bosib olishda Junaidxonga qarshi harbiy harakatlari yoritib o'tilgan.

ВЛИЯНИЕ БОЛЬШЕВИКОВ НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ СИТУАЦИЮ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ И ЛИКВИДАЦИЯ ХАНСТВА

Маруфджон Каюмов

Кандидат исторических наук, доцент

Наманганский инженерно-технологический институт

Наманган, Узбекистан

E-mail: marufjonkaumov101@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Асфандиярхан, Джунайдхан, П. Юсупов, корабли «Ташкент» и «Верный», Саид Абдулла, Туркестанская комиссия, Красная армия, манифест, «революционное движение», «народная революция».

Аннотация: В данной статье представлены сведения о влиянии большевиков на политическую ситуацию в Хивинском ханстве в 1918-1922 годах и прекращении существования ханства. Так же освещались военные действия большевистского правительства против Джунайд-хана во время завоевания Хивинского ханства.

Kirish.

Xiva xonligini 1918 yil rus qo'shinlari tark etgach, xonlikda qurolli kuchga ega bo'lgan Junaidxon xukmronligi o'rnatildi. U vujudga kelgan vaziyatdan foydalanib, 1917 yil kuzida Erondan qaytib kelgan edi. Asfandiyorxon o'zining qo'shiniga ega bo'limganligi sababli, avvallari xukmronligini rus qo'shinlariga tayanib saqlab turardi. Ular ketgach esa asosiy tayanchidan maxrum bo'lib, katta xarbiy kuchga ega bo'lgan Junaidxon ta'siri ostiga tushib qoldi. Junaidxon xonlikda o'z xukmronligini o'rnatdi. U bekliklar xokimlari yoniga o'z odamlarini tayinlagan. Chunki uning odamlari boshqaruv ishlarida tajribasiz edilar.

Tadqiqotning asosiy usullari.

Asfandiyorxon Junaidxonning o'g'li Eshshiga sovg'a-salom berib, yosh xivaliklar 1917 yil tuzgan xukumatda bosh vazir bo'lgan Xusainbek Matmurodov, uning iste'fosidan so'ng shu lavozimni egallagan Isoqxo'jani, tashqi ishlar vaziri bo'lgan Abdusalomxo'jani (Said Islomxo'jani o'g'li. – M. Q.) va xazinachi Tolibxo'jani qatl ettirdi[1]. Yosh xivaliklarni mol-mulki musodara qilinib, oilalari esa ko'chaga xaydaldi. Ular bilan aloqada bo'lgan kishilar xam jazoga tortildilar. Junaidxon odamlari tomonidan bir kunning o'zida 1917 yil aprel namoyishida qatnashgan 24 kishi otib tashlanadi. Biroq, keyinchalik Asfandiyorxonning o'zini xam Junaidxon qatl ettirgan. P. Yusupovning yozishicha, qatl etilgan yosh xivaliklarning o'chini olish maqsadida Asfandiyorxon bolsheviklardan yordam so'raganligi xaqidagi yolg'on xabarni Junaidxonga jo'natadi. Natijada Junaidxon 1918 yil 1 oktyabrda o'g'li Eshshi boshchiligidagi navkarlarini yuborib, Asfandiyorxonni qatl ettiradi[2]. Uning o'rniga yanada itoatliroq bo'lgan Said Abdulloni xon etib tayinlaydi. Asfandiyorxonning akasi Said Abdullo irodasiz kishi bo'lib,

davlat ishlari bilan qiziqmas edi. Junaidxon saroyda davlat ishlarini boshqarish uchun o‘z odami Davlat Murod Maxram degan kishini qo‘yadi.

Natijalar.

Xiva xonligida o‘zining to‘la xukmronligini o‘rnatgan Junaidxon Amudaryo o‘ng qirg‘og‘idagi bolsheviklar qo‘l ostidagi xududlarni xonlik tarkibiga qaytarib olish uchun xarakat boshlaydi. 1918 yil 24 noyabrda o‘n ming kishilik qo‘shin bilan To‘rtko‘l (Sobiq Petro-Aleksandrovsk. dissertant) shaxriga xujum qiladi. To‘rtko‘lda bolsheviklarning sakkiz yuz kishilik qo‘shini bor edi. Junaidxon qo‘shinlari ularning qattiq qarshiligidagi duch kelgach, shaxarni qamal qilib oladi. Shuningdek, uning qo‘shinlari Nukusga xam xujum qilib, qamal qiladilar[3]. Bolsheviklarga yordam uchun Chorjo‘ydan “Toshkent” va “Verniy” kemalarida 180 kishi keladi. qamalning o‘n birinchi kuni bolsheviklarning qarshi xujumi natijasida Junaidxon qo‘shini katta talofat ko‘rib, mag‘lubiyatga uchraydi. Junaidxon xarbiy kuchlari soni ko‘p bo‘lishiga qaramasdan uyushmagan edi. Mag‘lubiyatga uchragan Junaidxon bolsheviklarga qarshi xujum xarakatlarini vaqtincha to‘xtatadi. 1919 yilga kelib Junaidxon va uning amaldorlarining axoliga nisbatan zo‘ravonlik va o‘zboshimchalik qilishlari, oltin va kumush pullarni muomaladan chiqarib, qog‘oz, shoyi pullarni joriy etishi, ot va boshqa chorva mollarini zo‘rlik bilan tortib olishi, bo‘ysunmagan qishloq va ovullarga xujumlari, odamlar, transport vositalarining urushga safarbar qilinishi, sug‘orish tarmoqlarini ishdan chiqishi, avvalgi savdo aloqalarini buzilishi natijasida xonlikning iqtisodiy va xo‘jalik xayoti izdan chiqqan edi. 1919 yil boshlarida Xiva xonligida siyosiy vaziyat xam keskin edi.

O‘z maqsadini amalga oshirish uchun 1919 yil iyunda Junaidxon Xiva xonligida umumiylar xarbiy safarbarlik e’lon qiladi. Zudlik bilan qurolli guruxlar tuzish boshlandi. Safarbar qilinganlar o‘z xisoblaridan miltiq va o‘q dori sotib olishlari lozim edi. Xarbiy xizmat o‘tashga odam bermagan xar bir xo‘jalikka maxsus xarbiy soliq – “urush solg‘ut”i solib, 300 so‘mdan undirib olindi[4]. Junaidxon qurolli kuchlarini kuchaytirishda xonlik tashqarisidan xam ko‘mak olishga intildi. Avvalo Amudaryo bo‘limida sovet xukumatiga qarshi xarakat qilayotgan Filichev va Xon Maxsum (1887-1956) bilan aloqa o‘rnatdi va birgalikda xarakat qilishga kelishib oldi. Buxoro amiri bilan xam xarbiy ittifoq tuzishga intildi[5]. Buxoro amiri Xivaga 11 ta avstriyalik Buxoroda yashovchi xarbiy asirlardan qurollarni ta’mirlash uchun yuboradi.

1919 yil oktyabr oyida Omskda xarakat qilayotgan admirallar Kolchak (1874-1920) 130 kazak va 8 ta zobitdan iborat xarbiy bo‘linma va katta miqdorda quroq va o‘q dorilar yuboradi. 1919 yil oxirlariga kelib Junaidxon o‘z qo‘shinlari sonini o‘n yetti ming otliqqa yetkazishga erishadi[6]. Shuningdek, shartnomalar tuzilgandan so‘ng, vaqtincha vujudga kelgan osoyishtalikdan foydalanib, Bolsheviklar xukumati xam Xiva xonligiga bostirib kirishga zo‘r berib tayyorlana

boshlaydi. 1919 yil 8 oktyabrda RSFSR xukumati tomonidan tuzilgan Turkkomissiya Amudaryo bo‘limida xarbiy kuchlarni kuchaytirishga katta e’tibor berdi. To‘rtko‘lga qo‘srimcha xarbiy qismlar va qurol, o‘q-dorilar keltirila boshlandi. Mart oyidayoq Chorjo‘ydan inqilobiy kengash a’zosi Naumov boshchiligidagi temiryo‘l ishchilaridan tuzilgan xarbiy qism To‘rtko‘lga yuboriladi. Shuningdek Chorjo‘y partiya tashkilotini xodimlarining yigirma besh foizi To‘rtko‘lga safarbar qilinadi[7].

Bolsheviklar xukumati Xiva xonligini bosib olishda Junaidxonga qarshi kuchlarni birlashtirishga va ularning yordamida foydalanishga xarakat qildi. Ana shu maqsadda To‘rtko‘ldagi xivalik qochoqlardan qurolli guruxlar tuzildi. Qizil armiya zabitlari mashg‘ulotlar olib borib, ularni xarbiy ishga o‘rgatdilar. 1919 yil oxiriga kelib xivaliklardan tuzilgan qurolli gurux a’zolarining soni 600 kishiga yetdi. Turkkomissiya ko‘plab kommunistlarni Xivaga yashirinchay yubordi. Turkkomissiyaning buyrug‘iga binoan RKPning o‘lka musulmonlar byurosi Xiva xonligida targ‘ibot ishlarini olib borish uchun a’zolaridan G. Faxriddinov, Devlekamov, Q.Odinayev, B.Soatqulov va boshqalarni yubordi[8]. Shuningdek Toshkentda yosh xivaliklarning a’zolari targ‘ibot ishlarini olib borishga tayyorlandi. Yosh xivaliklar sovet xukumatining va’dalariga ishonch bildirib, mustabid xon tuzumini ag‘darib, mustaqil, demokratik davlat tuzishda yordam beradi degan fikrda edilar. Shu sababli ular Junaidxonga qarshi kurashda bolsheviklar bilan faol xamkorlik qildilar. 1918 yil may oyida Toshkentda yashayotgan yosh xivalik – muxojirlar Markaziy Inqilobiy qo‘mitasini tuzadilar. qo‘mitaga Polvoniyozi Yusupov rais etib tayinlanadi. Inqilobiy qo‘mita tarkibiga yosh xivaliklarning faol a’zolari B.Yoqubov, Otajon Sapayev, Muxiddin Umarov, Nazir Sholikarov va boshqalar kirdi. Yosh xivaliklar Markaziy qo‘mitasi Rossiya kommunistik partiyasi musulmon tashkilotlari o‘lka byurosi tarkibiga kiritildi. To‘rtko‘lda 1919 yil 10 aprelda tarkibi Jumaniyozi Sultonmurodov, Xakim bojbon Muxamedov, Bobojon Otajonov va boshqa yosh xivaliklardan iborat Xiva inqilobiy qo‘mitasi tashkil etildi[9]. Shuningdek, Chorjo‘yda, Asxobodda, Xo‘jayli va xonlikning Ko‘xna Urganch, Qo‘ng‘iroq, Fazovot, Xiva, Xazorasp, Iloli kabi bekliklarida xam yashirin inqilobiy qo‘mitalar tuzildi. Jumaniyozi Sultonmurodov RKP Turkiston musulmon byurosining Xiva va To‘rtko‘ldagi komissiyasi a’zosi etib tayinlandi[10]. Bolsheviklar yosh xivaliklarga ta’sir o‘tkazib, ulardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga xarakat qildilar. Bu narsa, ayniqsa, yosh xivaliklarning yangi dasturida yaqqol namoyon bo‘ldi. Toshkentda 1919 yil boshlarida yosh xivaliklarning Markaziy inqilobiy qo‘mitasi majlisida yangi dastur tuzildi. Manifest tarzida tuzilgan ushbu dasturda xon tuzumini ag‘darish, Xivani Turkistonga birlashtirib, Rossiya tarkibiga qo‘sish, xon, shaxzodalar, amaldorlarning yerlarini xalq mulki deb e’lon qilish, xonlik shaxar va qishloqlarida bepul maktablar va bepul tibbiy yordam

ko‘rsatuvchi kasalxonalar ochish, yo‘l va ko‘priklarni yaxshilash, barcha mexnat majburiyatlarini bekor qilish, xon xukumatini ag‘darib, xalq xokimiyatini tashkil etish kabi masalalar bayon etilgan edi[11].

1919 yil kuziga kelib Junaidxon qurolli guruxlarining o‘zboshimchaligi, zo‘ravonligi, vayronagarchilik, qashshoqlik natijasida xalqning Junaidxon xukmronligiga qarshi noroziligi kuchayib, vaziyat yanada keskinlashdi. Bundan foydalanib, bolsheviklar Xiva xonligida o‘z faoliyatlarini kuchaytirdilar.

Bu vaqtga kelib, bolsheviklarning Xiva xonligiga bostirib kirishi uchun qulay imkoniyat vujudga kelgan edi. Chunki, qizil armiya qismlari Kolchak qo‘sishinlarini tor-mor etgan, Kaspiyorti frontida xam katta muvaffaqiyatlarga erishgan edi.

1919 yil noyabrida Ko‘xna Urganch bekligida turkman sardorlaridan biri qo‘shtmamadxon Junaidxonga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarib yosh xivaliklar bilan aloqa o‘rnatadi[12].

Qo‘shtmamadxon Mulla O‘roz Xojimamedovni To‘rtko‘lga vakil qilib yuborib, sovet xukumatidan qurolli yordam berishni so‘raydi. Shuningdek, Iloli, Qo‘ng‘irot bekliklarida xam ayrim turkman urug‘lari boshliqlari Junaidxonga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradilar. To‘rtko‘ldagi sovet xukumati raxbarlari xonlikda qo‘zg‘olon boshlangani xaqida xabar yuborib, Xiva xonligiga zudlik bilan bostirib kirishga unday boshlaydilar. 1919 yil 1 noyabrdada To‘rtko‘l garnizoni xarbiy komissari A. Dinin Turkiston mudofaa kengashi raisiga shunday ma’lumot yuboradi: “Xivada inqilob boshlandi. Junaidxon xukumati zulmiga qarshi yovmut qabilalari va o‘zbeklar qo‘zg‘aldilar. Urganchdan Xo‘jayligacha bo‘lgan xududlarda janglar ketmoqda. qo‘zg‘olonda yosh xivaliklar inqilobi qo‘mitasi xam faol ishtirok etmoqda. Isyonchilarining vakillari To‘rtko‘lga kelib qurolli yordam so‘ramoqdalar”. Toshkentda chop etiladigan “Ishtirokiyun” gazetasida ushbu xabar ko‘pchilikning e’tiborini tortish maqsadida bosib chiqariladi[13].

Aslida Xiva xonligidagi qo‘zg‘olon va qo‘zg‘olonchilarining sovet xukumatidan yordam so‘rashi bolsheviklar tomonidan uyuştirilgan edi. Bu narsa 1919 yil 4 noyabrdada RKP O‘lka byurosining Xiva tashkilotlari

bo‘yicha vakili Xasanovning quyidagi Xiva xonligiga zudlik bilan xujum qilishga ruxsat so‘rab yozgan maktubida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Bizning faol olib borgan targ‘ibotlarimizdan so‘ng, Xiva xalqi Junaidxonga qarshi qo‘zg‘aldi. Xamma joylarda janglar ketyapti. Bizga vakillar kelib yordam so‘radi. Vaqt ni o‘tkazsak, yutqazishimiz mumkin. Bizning olti oylik barcha ishlarimiz yo‘qqa chiqadi. Xarbiy qism bilan qo‘zg‘olonchilarga yordam berish uchun Xiva xududiga kirishga ruxsat berishingizni so‘rayman”[14].

Bu sovet Turkistoni bolsheviklari orziqb kutgan voqyea edi. Chunki, bu qo‘zg‘olon ko‘targan Xiva xalqiga yordam ko‘rsatish va uning “iltimosi” bilan qo‘sni mustaqil davlatga

qo'shin kiritish uchun bolsheviklarga katta baxona edi. Bu masalada ularni Turkkomissiya to'la qo'llab-quvvatladи[15]. Turkkomissiya sovet xukumati nomidan vakili G.K.Skalovni Xiva xonligiga qizil armiya qo'shinlari xujumini uyushtirish uchun yuboradi.

1919 yil 20 noyabrda Turkkomissiya To'rtko'ldagi qizil armiya qo'mondonligiga Xiva xonligiga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'rish xaqida ko'rsatma beradi. G. Skalov To'rtko'lga yetib kelgach, bu borada faol ish boshlab yuboradi. U bilan birga Chorjo'ydan qo'shimcha xarbiy kuchlar xam kelgan edi. To'rtko'ldagi xarbiy qismlar qayta tashkil etilib, Amudaryo qo'shinlari guruxi deb nomlandi. Bu qo'shinlarga Turkfront vakili N.M.Shcherbakov qo'mondon etib tayinlandi. Amudaryo qo'shinlari guruxidan Xiva xonligiga xujum qiluvchi shimoliy otryad va janubiy otryad deb nomlangan ikki gurux tuzildi. Shimoliy otryadga N.A.Shaydakov, janubiy otryadga V.Uryadov Qo'mondon etib tayinlandilar. Xiva xonligiga qarshi xujum xarakatlarini boshlashdan avval G.Skalov Amudaryo bo'limida sovet xukumatiga qarshi kurash olib borayotgan Ural kazaklari va Qoraqalpoq qo'zg'olonchilari bilan tinchlik bitimini imzolashga erishgan.

1919 yil 23 dekabrdan Turkfront qo'mondoni M.V.Frunze va shu front inqilobiy kengashi a'zosi V.V.Kuybishev buyrug'iga asosan sovet qo'shinlari Amudaryoni kechib o'tib, Xiva xonligi xududiga bostirib kiradilar[16].

Qizil armiya qismlari ikki tomonidan xujum qilib, birin-ketin xonlikning xududlarini bosib ola boshlaydilar. Sovet qo'shinlari xonlik xududiga kirkach, ularga Junaidxonga dushman bo'lgan qo'shmamatxon, G'ulom Alixon, Shomurod Baxshi boshliq turkman qurolli guruxlari xam qo'shiladi[17].

P.Yusupovning yozishicha Skalov, Shaydakov, Qo'shmamatxon va G'ulom Alilar Badirkentda Junaidxonning tobe'larini o'ldirib, mol-mulklarini olib, uy joylarini xarob qilganlar. Junaidxonning uyini darvozasini yiQitib, darvoza, taxtalarini qo'shmamatxon olib, o'z uyiga yuborgan. Xatto elektr lampa simlari xam bo'lgan. Bularni barini Qo'shmamatxon Skalov va Shaydakovlar bilan kelishuvga muvofiq, ularning ruxsati bilan o'ziga oladi[18].

1920 yil fevralda sovet qo'shinlarining janubiy guruxi jiddiy qarshilikka uchramay poytaxt Xivaga kirdilar. Sovet qo'shinlari bosib olgan xududda tinch axoliga nisbatan zo'ravonlik va talonchilik qilishda podsho imperiyasi qo'shinlaridan xam o'tib tushdilar. Qizil armiya askarlari o'z talonchiliklarni boshliqlari raxbarligida amalga oshirdilar. 1920 yil 4 yanvarda Yangi Urganch bosib olingach, Janubiy gurux qo'mondoni Shcherbakov u yerda axoli uchun xam juda zarur bo'lgan kerosin, benzin va mazutni o'lja tariqasida olib, 150 aravada To'rtko'lga jo'natadi[19]. Tinch axoliga nisbatan zo'ravonlik qilmaslik xaqida avvaldan berilgan buyruqqa qaramay, xonlik xududida qizil armiya qo'shinlari va ularning ittifoqchilari – turkman qurolli

guruxlari zo‘ravonlik, talonchilik va o‘g‘irliklar qildilar. Bu xaqda Turkiston xarbiy inqilobiy kengashining muxtor vakili T.I.Broydo (1885-1956) shunday yozadi: “Sovet qo‘shinlari qo‘mondonlik tarkibi ishtiroki va raxbarligida xatto o‘zlari rasman Junaidxon zulmidan “qutqaradigan” larga nisbatan xam xaddan tashqari zo‘ravonlik, talonchiliklar qildilar, uy-joy, butun-butun qishloqlarni yakson qilib, yo‘q qildilar”[20].

1920 yil 2 fevralda bolsheviklarni tazyiqi ostida Said Abdullaxon taxtdan voz kechganligi xaqidagi manifestga imzo chekadi. J.Sultonmurodov raisligida yangi muvaqqat koalision xukumat tashkil etiladi. Yosh xivaliklar vakili Jalol Oxun, turkman qurolli guruxlari boshliqlari qo‘shmamadxon va Mulla O‘roz Xojimammedovlar xukumat a’zoligiga tayinlanadilar. Aslida bu xukumat bolsheviklarning bosqinchilik siyosatini yashirish uchun tuzilgan bo‘lib, amalda biron-bir masalani mustaqil xal eta olmasdi. Mamlakatdagi xokimiyat sovet xukumati vakillari qo‘lida edi. Buni xukumat raisi J.Sultonmurodovning o‘zi xam tan olib shunday degan edi: “Muvaqqat xukumat sovet qo‘shinlari shtabi va duch kelgan qizil askar uchun mayda xizmatchi edi. Ularni doimo qo‘rqitganlar, ular asosan qizil askarlarga sharoit yaratish, arava, otlari uchun beda topish bilan shug‘ullanganlar”[21].

1920 yil 4 aprelda bolsheviklarning tashabbusi bilan Xivada kommunistlarning umumiyligi yig‘ilishi o‘tkazildi. Ushbu yig‘ilishda Xorazm kompartiyasi tuzilib, yosh xivaliklar partiyasini tarqatib yuborilgan deb e’lon qilindi. Bir qancha yosh xivaliklar XKP safiga kirdilar. 26-30 aprelda xon tuzumi ag‘darilgandan so‘ng vujudga kelgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlarni qonunan rasmiylashtirish uchun Xorazm xalq vakillari qurultoyi chaqirildi. Qurultoyda Xiva xonligini tugatilganligini e’lon qilindi va mamlakatni Xorazm Xalq Sovet Respublikasi deb e’lon qilindi[22].

Xulosa.

Xokimiyat tarkibi sobiq yosh xivaliklar, turkman urug‘lari raxbarlari va kommunistlardan iborat bo‘ldi. 1920 yil 13 sentyabrda Moskvada Rossiya Sovet respublikasi bilan XXSR o‘rtasida imzolangan shartnomaga binoan sovet xukumati XXSRni mustaqilligini tan oldi[23]. Biroq amalda Xorazm xukumati mustaqil bo‘lmadi. Mustaqil siyosat yuritishga xarakat qilganligi va Turkkomissiya buyruqlarini bajarmaganligi uchun uch yarim yil ichida Xorazmda xukumat olti marta almashtirildi. Chunki, sovet xukumatini xonlikda davlat to‘ntarish uyuştirishdan maqsadi mustaqil Xiva davlatini tuzish emasdi. Sovet qo‘shinlarining xonlik xududiga kiritilishi mustaqil Xiva davlati ichki ishlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuv, bosqinchilik edi. Rossiyaning rasmiy doiralari, Turkkomissiya va Turkfront vakillari Xivadagi davlat tuzumini ag‘darib tashlashdagi xarbiy bosqinchiliklarini yashirish uchun bo‘lib o‘tgan voqyealarni “inqilobiy xarakat”, “xalq inqilobi” deb atadilar. Biroq, o‘scha davrdayoq sovet xukumatining ayrim namoyondalari bu ish

bosqinchilik ekanligini ta'kidlagan edilar.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Хивада даҳшатли холлар // Улуғ Туркистон. 1918, 22 июл, № 108
2. Юсупов.П Кўрсатилган асар. 177-б.
3. Чепрунов Б.В Поражение Джунаид-хана // За Советский Туркестан (сборник воспоминаний). - Т.: Госиздат УзССР, 1963. - С. 65-71.
4. Непесов Г. Из истории Хорезмской революции... С. 128.
5. Амир Сайид Олимхон. Бухоро ҳалқининг ёасрати тарихи. - Т.: Фан, 1991. Б. 13.
6. ЎзР МДА, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 11-иш, 134-варак
7. Погорельский И.В. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики. - Л.: изд-во ЛГУ, 1984. С. 92.
8. ЎзР МДА, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 659-иш, 33-варак.
9. Кошанов Б.А. Право на вторжение... Неизвестные страницы истории Каракалпаки и Хорезма в 1920 - 1924 гг. - Нукус, 1993. С. 22.
10. ЎзР МДА, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 659-иш, 21-варак.
11. Мухаммадбердиев К.Б. История Хорезмской революции. - Т.: Фан, 1986. С. 62-63.
12. История XНСР. Сборник документов. - Т.: Фан, 1976. С. 26.
13. Иштироқиён. 1919, 12 ноябр.
14. ЎзР МДА, Р-17-фонд, 1-рёйхат, 200-иш, 118-варак.
15. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. - Т.: Шарш, 2000. Б. 118.
16. Тухтаметов Т.Г. Россия и Хива в конце XIX - начале XX века. - М., 1969. С. 135.
17. События в Хиве // Известия. Орган ЦКК и ЦИК Туркестанской республики. 1921, 30 март.
18. Юсупов Т. Ёш хиваликлар тарихи. - Урганч, 2000. Б. 198.
19. Щербаков Н.М. Таким было начало ... С. 102.
20. Кошанов Б. Сейтназаров М. Революция? Вторжение? События в Хивинском ханстве... С. 27.
21. Кошанов Б. Сейтназаров М. Революция? Вторжение? События в Хивинском ханстве... С. 28-29.
22. ЎзР МДА, И-125-фонд, 1-рёйхат, 609-иш, 49-варак
23. ЎзР МДА, Р-71-фонд, 6-иш, 128-варак.